

## ULUG'BEK HAMDAMNING "OTA" ROMANI BOSH QAHRAMONLARI PO'LAT VA YOG'DU OBRAZLARI RUHIYATI TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11218763>

**Mo'minov Dilshod**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti*

*O'zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi*

**Kiryigitova Nigora**

*JDPU O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi o'qituvchisi*

**Muminov Dilshod**

*Jizzakh State Pedagogical University*

*Student of the Faculty of Uzbek Language and Literature*

**Kiryigitova Nigora**

*Teacher of the Department of Uzbek Language and Literature of JDPU*

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada mustaqillik davri romanchiligi va hikoyachiligida o'zining salmoqli o'rniga ega bo'lgan yozuvchi Ulug'bek Hamdamning "Ota" romanidagi bosh qahramonlar ruhiyati va yozuvchining inson ichki kechinmalari, ruhiyatini tavsirlash mahorati qay darajada ekanligi tahlil qilingan.

### **Kalit so'zlar**

Qahramon, tuyg'u, ota, muhabbat, mardlik.

## ANALYZING THE PSYCHOLOGY OF POLAT AND YOGDU, THE MAIN CHARACTERS OF ULUGBEK HAMDAM'S NOVEL "FATHER"

### **Annotation**

*This article analyzes the mentality of the characters in the novel "Father" by the writer Ulugbek Hamdam, who had a significant place in the novels and stories of the period of independence, and to what extent the writer's ability to interpret human inner experiences and mentality is analyzed.*

### **Keywords.**

*Hero, feeling, father, love, bravery.*

Nasrda har bir asar syujeti bosh va epizodik qahramonlar ustiga quriladi va ularning ruhiyati hamda harakatlari asosida asarning bosh g'oyasi ochib beriladi. Biz tahlil qilayotgan Ulug'bek Hamdamning "Ota" romani hajm jihatidan

unchalik katta emas, ammo unda bo'lib o'tgan voqealar bir inson umriga teng. Ushbu romanda ham asardagi asosiy fikr undagi bosh qahramonlar Po'lat, Yog'du, O'tkir aka, Oychechak opa, Sevinch va Erboy obrazlari orqali yuzaga chiqarilgan. Ayniqsa, Po'lat obrazining ichki kechinmalari va harakatlari orqali Ulug'bek Hamdam haqiqiy o'zbek o'g'loni, otasining qiyofasini yarata olgan.

Eri urushda bo'lsa, uyda qolgan bitta bolaga tegilmaydi, deyishgandi-ku, axir!.. – deya zor-zor yig'lardi. Lekin sho'rlik bilmasdiki, urushga ketish balosi hukumatdan emas, o'g'li Po'latning o'zidan chiqqan edi. Ha-ha, xuddi o'zidan: «Mening yoshim yetgan bo'lsa, urushga qachon olasizlar?» deya o'n qayta emas, yuz qayta borgan, borib u yerdagilarning holi-joniga qo'ymagandi. «Hamma ajdaho komidan qochsa, bu ichiga otiladi-ya! Hay mayli, o'zingdan ko'r!» Rayon harbiy bo'limida urushga odam yetkazib berolmay xunob o'tirgan cho'loq boshliqqa Po'lat tayyor go'sht bo'ldi.[1;25]

Asar bosh qahramoni bo'lmish Po'lat haqida ushbu parchadan ham asosiy fikrga ega bo'lishimiz mumkin. U haqiqiy mard, jasur, oilasi va vatanini himoya qilishga shay oriyatli o'zbek yigiti. U o'z sevimli yori Yog'du bilan uyida tinchgina yashashi mumkin edi, lekin vijdoni va g'ururi bunga yo'l qo'ymaydi va o'z xohishi bilan urush o'chog'iga ketadi. Ushbu obraz orqali yozuvchi haqiqiy erkak kishi faqat o'z huzur-halovatini emas, yaqinlari va xalqining tichligini ham o'ylashi kerakligini uqtirgan. Po'lat juda sofdil va mehribon, vijdonli inson edi. Uning ushbu xislatlariga asarni mutolaa qilish davomida qayta-qayta guvoh bo'lishimiz mumkin. Uning qanchalar rahmdil va mehribon ekanligini do'sti Nikita bilan dushman yaralangan askariga yordam berib, uni omon qoldirganidan ham bilib olish mumkin.

Po'lat obrazining ichki olamini ochib berishda yozuvchi ko'p o'rinlarda qahramonning o'z o'zi bilan ichki suhbatiga murojaat qiladi. U har qanday vaziyatda avvalo ichki olami bilan suhbatlashadi va to'g'ri qaror chiqarishga harakat qiladi. Biz Po'latning qiyofasida oriyatli va qatiyatli ota timsolini ham yaqqol ko'ra olamiz. U qizidan qattiq ranjigan bo'lsa ham nabirasi Yodgor haqida ich ichidan qayg'uradi va haqiqatni bilgach, nabirasiga mehri juda ham ortadi. Qizi va rafiqasining qiyofasini unda ko'radi.

Asarda Yog'du obrazi orqali sadoqatli va qatiyatli o'zbek ayoli timsolini ko'rish mumkin. U Po'lat urushga ketgandan so'ng uzoq vaqt uni kutadi va otanasiga g'amxo'rlik qiladi. Uzoq yillar tirnoqqa zor bo'lishiga qaramay sabr bilan o'z oilasiga sodiq qoladi va buning mukofotini oladi.

U shunday umr yo'ldoshki qamoqda urushda yurgan eriga zarracha xiyonat qilmadi. 15 yil farzandga zor bo'lib yurishganda ham sassis yig'ladi ovoz chiqarmadi va nihoyat qorong'u kunlarni yorug'i kelib Yog'duyimiz onalik baxtiga erishdi. U shunday ona bo'ldiki hatto ishga (maktabga) borishni ham xohlamas edi.

Yog'dudan hozirgi ko'plab ayollar o'rnak olsa arziydi. Biz qayerga shoshyapmiz, nimadan quruq qolyapmiz, nima yetmayapti bizga. Bolamizni tashlab ishga shoshamiz. Vaholanki, ishdan uyga qaytib ham bolamizga emas o'sha ishdagi odamlarga, hujjatlarga sarflayapmiz vaqtimizni. Yog'du ona bo'ldi qiziga qattiq gapirib yo'lga soladigan emas yaxshi gapiradigan, qiziga dugona bo'lib u bilan dardlashadigan ona bo'ldi.[2;2]

Ulug'bek Hamdam asar qahramonlarining ismlarini ham ularga xos va mos ramziy tanlagan deyish xato bo'lmaydi. Yog'du Po'latning hayotiga kirib kelgan osoyishta paytlarda uning qalbini, hayotini nurga to'ldirdi. Po'lat urushda paytida esa uni hayotda qolishga undovchi bir shula vazifasini bajara oldi. Po'lat unga bo'lgan muhabbati tufayli har qanday qiyinchilikni yengishga o'zida kuch topib, hayotda qolishga sabab topa oldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yog'du nafaqat yaxshi yor, balki juda mehribon ona ham edi. U Sevinchni jonidan ortiq yaxshi ko'rib, uni har qanday holatda himoya qilishga harakat qilardi. Shu sababli ham qizining tug'ruqxonada ekanini eridan yashirishga majbur bo'ladi. Chunki o'zbek onasi farzandi uchun nima qilish lozim bo'lsa qiladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, mahoratli yozuvchi Ulug'bek Hamdam ushbu romanda haqiqiy o'zbek oilasi va undagi erkak va ayol munosabatlarini, ularda bo'lishi kerak bo'lgan xislatlarni juda sodda va ravon tasvirlab bera olgan. Asar bosh qahramonlari Po'lat va Yog'du obrazlarida chinakam or-nomusli yigit hamda sadoqat va qanoat timsoli bo'lgan ayolni yaratgan. Shunday ekan bu romanni mutolaa qilish bugungi zamon kishilari uchun muhim.

In prose, the plot of each work is built on the main and episodic characters, and the main idea of the work is revealed based on their mentality and actions. The novel "Ota" by Ulugbek Hamdam, which we are analyzing, is not very large in terms of volume, but the events that took place in it are equivalent to one person's life. brought to light through the images of Tkir brother, Oychechak sister, Sevinch and Erboy. Especially through the inner experiences and actions of the character of Polat, Ulugbek Hamdam was able to create the image of a real Uzbek son and father.

They said that if her husband is at war, the one child left at home will not be touched! But he did not know that the misfortune of going to war was not from the government, but from his son Polat himself. Yes, he said to himself: "If I am old enough, when will you take me to war?" He went not ten times, but a hundred times, and he did not care about the lives of the people there. "If everyone runs away from the dragon's den, they will fall into it!" Come on, look at yourself!" Steel became ready meat for the crippled chief who was unable to supply men for the war in the district military department.[1;25]

We can have a basic idea about Polat, the main character of the play, from this passage. He is a truly brave, brave, pious Uzbek guy who is ready to protect his family and homeland. He could live peacefully in his house with his beloved Yogdu, but his conscience and pride do not allow him to do so, and he willingly goes to the battlefield. Through this image, the writer taught that a real man should think not only about his own well-being, but also about the peace of his relatives and people. Polat was a very honest and kind, conscientious person. We can repeatedly witness these qualities while reading the work. How kind and compassionate he is can be seen from the fact that he and his friend Nikita helped a wounded enemy soldier and saved him.

When revealing the inner world of Polat's character, the writer often refers to the inner conversation of the hero with himself. In any situation, he first talks with his inner world and tries to make the right decision. We can clearly see in the image of Polat the image of a devoted and determined father. Even though he is very angry with his daughter, he deeply cares about his grandson Yodgor, and when he learns the truth, his love for his grandson increases a lot. He sees the image of his daughter and wife in him.

Through the image of Yogdu in the work, it is possible to see the image of a loyal and determined Uzbek woman. He waits for Polat and takes care of his parents for a long time after he goes to war. Despite many years of hard work, he patiently remains faithful to his family and receives a reward for this.

She is such a lifelong companion that she did not betray her husband, who was fighting a war in prison. Even when they struggled to have a child for 15 years, Sassis did not cry and did not make a sound, and finally, the light of the dark days came, and our Yogduy got the happiness of motherhood. She became such a mother that she didn't even want to go to work (school).

Many women today should follow the example of Yogdu. Where are we in a hurry, what are we running out of, what are we missing? We leave our children and rush to work. However, even when we return home from work, we spend our

time not on our children, but on the people at work and documents. Yogdu became a mother who spoke well to her daughter, not one who told her harshly, she became a friend to her daughter and took pains with her.[2;2]

It would not be a mistake to say that Ulugbek Hamdam chose the names of the heroes of the work to be typical and symbolic. Yogdu entered Polat's life in peaceful times and filled his heart and life with light. During the war, Polat was able to perform the task of a sula, encouraging him to stay alive.

It is no exaggeration to say that due to his love for her, Polat found the strength to overcome any difficulties and found a reason to stay in life

Yogdu was not only a good wife, but also a very loving mother. He loved Sevinch more than his life and tried to protect her at all costs. Because of this, she has to hide from her husband that her daughter is in the maternity hospital. Because an Uzbek mother will do whatever she needs to do for her child.

In conclusion, we can say that the skilled writer Ulugbek Hamdam was able to describe the real Uzbek family and the relationship between men and women in this novel, and the qualities they should have very simply and fluently. In the characters of the main characters Polat and Yogdu, he created a truly honorable young man and a woman who is the symbol of loyalty and contentment. Therefore, reading this novel is important for people of today.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ulug'bek Hamdam "Ota" romani - T.: 2020. "Yangi asr avlodi".25-bet.
2. "ULUG'BEK HAMDAMNING "OTA" ROMANIDA ONA (AYOL) OBRAZI", Olimjonova Sarvinoz Maxmudjon qizi.2-bet
3. [www.ziyo.com](http://www.ziyo.com). kutubxonasi.